

## ZAMONAVIY YOSHLAR YETAKCHISI

Mirzaumarov Xondamir Mirshoyit o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17520040>

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, yoshlarning faolligi, tashabbuskorligi va yetakchilik salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida yangi avlod vakillari orasida zamonaviy dunyoqarashga, yangilik yaratishga va jamiyatni rivojlantirishga qodir yoshlar yetakchilari shakllanmoqda. Zamonaviy yoshlar yetakchisi - bu shunchaki tashkilotchilik qobiliyatiga ega inson emas, balki o'z zamonasining talablari, raqamli dunyo jarayonlari va inson qadri konsepsiyasini chuqur anglagan, yoshlar bilan ishlashda yangi yondashuvlarni qo'llay oladigan lider shaxsdir.

Yoshlar yetakchisi bugungi kunda davlat va jamiyat o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. U mahalladagi yoshlarning dardini eshitadi, ularning muammosini hal etishda amaliy yordam beradi, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi. Eng muhimi, u yoshlarda vatanparvarlik, ma'naviy poklik va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Har bir zamonaviy yetakchi shuni anglamog'i kerakki, u nafaqat bugunning muammosini hal etadi, balki ertangi avlod uchun imkoniyatlar yaratadi. Shu bois yetakchilik bu lavozim emas - bu fidoyilik, xalq uchun xizmat hamda Prezidentimiz boshchiligidagi komandaning amalga oshirayotgan islohotlarining mahallaga qadar yetkazib beruvchi ko'prik vazifasini bajaruvchi shaxs.

Zamonaviy yoshlar yetakchisi quyidagi fazilatlar bilan ajralib turadi:

1. Tashabbuskorlik – yangi g'oya va loyihalarni ilgari surish, yangiliklardan cho'chimay, o'z jamoasini yangilik sari boshlash.
2. Axborot texnologiyalarini bilish – raqamli davrda yoshlar bilan ishlash uchun internet, ijtimoiy tarmoqlar va media maydonni samarali boshqarish.
3. Muloqot madaniyati – turli yoshdagi insonlar bilan to'g'ri va samimiy muloqot qilish, tinglash, tushunish va ruhlantira olish.
4. Mas'uliyat va halollik – har bir ishda javobgarlikni his etish va jamiyat ishonchini oqlash.
5. Jamoaviy yetakchilik – “Men” emas, “Biz” tamoyiliga amal qilish, yoshlarni birlashtirish, ularni umumiy maqsad sari yetaklash.

Zamonaviy yetakchi ayni paytda o'z ustida tinimsiz ishlaydigan insondir. U bilimini boyitadi, yangi texnologiyalarni o'rganadi, o'z fikrini ochiq bildiradi va eng muhimi - o'rnak bo'la oladi. Mahalla - yoshlar hayotining ilk maktabi. Shu bois yoshlar yetakchisining har bir tashabbusi, har bir g'oyasi bevosita jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Masalan, yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, ijtimoiy tarmoqlarda foydali kontent yaratish, sport va madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish - bu oddiy tashabbuslar emas, balki millat kelajagini mustahkamlovchi harakatlardir. Zamonaviy yoshlar yetakchisi - bu mahallasining yuragi, harakatdagi fikridir. U birgina yaxshi so'zi yoki ibratli ishi bilan o'nlab yoshlarga yo'l ko'rsatadi, ularni orzular sari ruhlantiradi.

Raqamli asrda yoshlar yetakchisining eng katta ustunligi - texnologiyani foydali maqsadlarda qo'llay bilishidir. Bugungi kunda yoshlar bilan ishlashda mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun'iy intellekt yordamida so'rovlar va monitoring tizimlari joriy etilmoqda. Masalan, yoshlar bandligini raqamli reyestr orqali nazorat qilish, iqtidorli yoshlarni onlayn

tanlovlar orqali rag'batlantirish yoki ekologik loyihalarni internet orqali ommalashtirish - bularning barchasi zamonaviy yetakchilikning yangi bosqichidir.

Zamonaviy yetakchi "offlayn" emas, "onlayn" ham bo'lishi kerak. Chunki bugungi yoshlar dunyoni raqamli ko'rinishda ko'radi, va yetakchi shu maydonda ularga ibrat bo'lishi shart. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yo'lga qo'yilgan mega loyihalar ham buning yaqqol misolidir.

Men, Namangan viloyati Yangi Namangan tumani "Mustaqillikning besh yilligi" MFY yoshlar yetakchisi, o'z faoliyatim davomida shuni angladimki, har bir muvaffaqiyat - bu jamoaning mehnati. Biz mahallamizda "Mahalla kutubxonasi", "Qalqon guruhi" va "Tashabbuskor yoshlar" loyihalarini yo'lga qo'ydik. Natijada 2024-yil I-mavsumida "Tashabbusli budjet" loyihasi orqali mahalla hududidagi "3-Charxpalak" ko'chasini asfaltlash loyihasi uchun 1 300 000 000 so'm, 2025-yil I-mavsumida "Tashabbusli budjet" loyihasi orqali tashabbus bilan mahalla hududidagi "Ofarin" ko'chasini asfaltlash loyihasi uchun 1 350 000 000 so'm, 2025-yil "Tashabbus sport" loyihasi orqali tashabbus bilan mahalla hududidagi 69-sonli umumiy ta'lim maktabiga "Stritbol-workout" maydonchasini hamda "Mening bog'im" loyihasida 250 000 000 so'm yutib olib mahallamiz infratuzilmasini yaxshilashga o'z hissamizni qo'shdik, ba'zi yoshlarimiz IT sohasida sertifikatlar oldi, ba'zilari esa sport va san'at yo'nalishida muvaffaqiyat qozondi. Eng quvonarlisi - bu natijalar yoshlarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchini mustahkamladi. Shu bois, zamonaviy yetakchining eng katta yutug'i - bu o'z ortidan ishonchli, faol va vatanparvar yoshlarni ergashtira olishi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy yoshlar yetakchisi - bu kelajakni bugundan qurayotgan insondir. U nafaqat rahbar, balki do'st, maslahatchi, motivator va orzular targ'ibotchisidir.

Bugungi O'zbekiston uchun bunday yetakchilar - millatning eng katta boyligi. Chunki aynan ular mamlakat taraqqiyotining, yoshlar siyosatining, jamiyat yangilanishining bosh harakatlantiruvchi kuchidir. Shu bois men ishonamanki, har bir yoshlar yetakchisi - o'z mahallasining ishonchli kelajagi, o'z yurtining faxrli farzandi. Bizning burchimiz - yoshlarga yo'l ko'rsatish, ularga ishonch berish, ularga kelajakni yaratish imkoniyatini ochib berishdir. Zero, "Yoshlar - kelajagimiz" degan so'z shunchaki shior emas, balki har bir yetakchining hayotiy maqsadidir. Shior: "Yetakchi bo'lish - bu mansab emas, bu yurak bilan xizmat qilish!"